

**AXOLI DAROMADINI OSHIRISH, TURMUSH TARZINI
YAXSHILASH VA KAMBAG'ALIKNI QISQARTIRISH**

O.X. Maxmudov

*TDIUF “Mutaxassislik, ijtimoiy gumanitar va
Aniq fanlari” professori, i.f.d.*

TDIUF Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 50/24 gurux

Talabasi F.B. Yoqubova

maxmudovodiljan1965@gmail.com

Ключевые слова: НОВАЯ СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА, заместитель хакима, национальная экономика, сокращение бедности, доходы населения, образ жизни, уровень занятости, предпринимательство, малый бизнес.

Kalit so'zlar: YANGI O'ZBEKISTON TARRAQIYOT STRATEGIYASI, hokim yordamchisi, milliy iqtisodiyot, kambag'alikni qisqartirish, aholi daromadi, turmush tarzi, bandlik darajasi, tadbirkorlik, kichik biznes.

Bugungi kunda mamlakatimizda muhtaram yurtboshimiz tashabuslari bilan

YANGI O'ZBEKISTON TARRAQIYOT STRATEGIYASI-2030 doirasida keng ko'lamlik islohotlar amalga oshirilmoqda, va bu islohotlar yo'lida muhim va strategik ustuvor yo'nalishlar belgilangan, ushbu strategik yo'nalishlarning uchinchi muhim ustivor yo'nalishi Milliy iqtisodiyotni, uning o'sish suratlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish ekanligi barchamizga ma'lumdir. Shuningdek, milliy iqtisodiyotimiz va yangi davrda amalga oshirilayotgan islohotlar rivoji yo'lida Axoli daromadi va turmush tarzini yaxshilash, kambag'alikni qisqartirish muxim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram prezidentimiz SH.Mirziyoyev uqtirib o'tkanlaridek, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson, millati, tili va dinidan qa'tiy nazar, erkin, tinch va badavlat turmush kechirishi bugungi hayotdan rozi bo'lib yashashi davlatning bosh maqsadi hisoblanadi.

So'ngi yillarda davlatimizda aholi daromadini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va kambag'alikni qisqartirish maqsadida keng ko'lamlik ishlar amalga oshirildi va davom etmoqda. Bunga misol qilib mahallabay ishlash tizimi va hokim yordamchilarini ayitishimiz mumkin. Prezidentimizning 2021-yil 3-dekabrda qaroriga muvofiq “Hokim yordamchisi” lavozimi tashkil qilindi, va ushbu ma'suliyatli lavozimga yetuk kadrlar, raxbarlik lavozimida ishlaganlar, faol yoshlar qabul qilindi. Va hokim yordamchiligidan ma'suliyatli lavozimga qabul qilingan kadrlarga quyidagicha asosiy vazifalar yuklatildi:

Mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganish, jumladan,

aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan samarali foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish; mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo'yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda, uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;

Doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish;

Mahalladagi mavjud bo'sh ish o'rinlarini hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, "temir daftar", "ayollar daftari" va "yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh (vakant) ish o'rinlariga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

Mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashish;

Mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ularga birlashtirish;

Aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyunchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;

Mahalladagi ish bilan band bo'lmagan aholining tadbirkorlik va doimiy daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishini yo'lga qo'yish maqsadida ularga issiqxona qurish, tomorqasini sug'orish uchun vertikal sug'orish quduqlarini burg'ilash, qishloq xo'jaligi kooperativiga a'zo bo'lish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to'lovi hamda kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishi uchun subsidiyalar olishda ko'maklashish.

Bugungi kunda muhtaram prezidentimiz tashabbuslari, yaratib bergan keng imkoniyatlari va hokim yordamchilarining mehnat samarasi bilan mamlakatimizda kambag'alik ko'rsatkichi sezilarli pasaydi va aholining turmush tarzi keskin yaxshilandi. Bunga misol qilib birgina Andijon viloyatini olsak, 2023-yil holatiga ko'ra aholining kambag'alik darajasi 17.4% dan 11.9 % gacha pasyigani albatta quvonarli holat.

Bizning fikrimcha, axoli turmush tarzini rivojlantirishda tadbirkorlikni

rivojlantirish, kichik bizneslarni qo'llab quvatlash ham muxim hisoblanadi. Prezidentimiz aytganlaridek Tadbirkor boy bo'lsa – Davlat boy bo'ladi deb o'ylayman. Muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari bilan so'ngi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Yosh tadbirkorlar uchun yaxshi sharoitlar yaratildi va ko'plab banklar tomonidan subsidya to'lovlari, foizsiz va kam foizlik kreditlar ajratildi.

Kelgusi yillarda ham axoli daromadini oshirish, turmush farovonligini yaxshilash va kambag'alikni qisqartirish maqsadida ushbu isloxlarni yanad keng yoyish va mahalla yetiligini xalq bilan ishlashga, axolining turmush tarzini o'rganishga, ishsiz fuqarolarni yuqori ko'rsatkichlarda bandligini ta'minlashga jalb qilish kerak deb bilaman.

Uchinchi renesans poydevori ya'ni Yangi O'zbekiston fuqarolari chinakam ravishda yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Jumladan, bu yangi davrda inson qadri va manfatlari muxim o'rinda turadi. Axolining farovon hayot kechirishi va iqtisodiy boy yashashi bugungi kunning davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Yangi O'zbekiston Tarraqiyot Strategiyasi-2030
- 2) <https://lex.uz/docs/-5758437> “MAHALLADA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH, AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARI TO'G'RISIDA Farmoni, 03.12.2021 yildagi PF-29-son”